



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxkarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliv kengashi huzuridagi Sudyalar oliv maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning
dolzARB muammolari**” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga
olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i>	
FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i>	
SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i>	
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Сойиб Раупов</i>	
KAMBAFAALLIK VA UNI ҚИСҚАРТИРИШ MUAMMOLARI	33-42
<i>Abdimo'minov Oybek Bektemirovich</i>	
MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARINING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i>	
ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i>	
SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i>	
KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромовиҷ</i>	
ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжсаниязов Элбек Сардорович</i>	
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i>	
O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i>	
QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Abdurahmanov Muxtora</i> ХУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKİSTONDA INNOVATSIYALARНИ RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPSION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Гайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ФОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i>	
O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIKA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdukarimovna</i>	
BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i>	
IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i>	
MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i>	
СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i>	
БУРХОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i>	
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "КО'К" SIFAT BELGISINING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i>	
HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i>	
ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i>	
XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLLILI	264-268
<i>Davronov Shekroz Abrorovich</i>	
OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i>	
NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i>	
К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i>	
O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i>	
INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Tухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i>	
ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i>	
XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i>	
YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i>	
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i>	
O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i>	
INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Аманазарова Шохида Бахрамовна</i>	
РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliquovna</i>	
ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i>	
SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i>	
RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i>	
ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i>	
ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Kommina Xursanovna</i>	
O'ZBEKİSTON İJTİMOİY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQİDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i>	
ONA TİLİ DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLİL QILISH METODİKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Imomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’MINLOVCHI TO’LOV – MAJBURIYATLARNI TA’MINLASHNING YANGI USULI SIFATIDA	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНинг ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЎЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ	437-445
<i>Miqutov Bobur</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To’ychiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTALARIGA BO’LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farxod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE	479-484
<i>Юсупов Ўқтамбай Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o’g’li</i> O’ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI	509-520
<i>To’ychiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	521-528

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urumbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛарни ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> MATEMATIKA FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	591-595
<i>To'xtayev Hasan Tosho'lalovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLAHTIRISH	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSILOGIK TAHLIL)	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	620-626

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i>	
МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМГА XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLILLAR	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i>	
О'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i>	
JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i>	
ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i>	
МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i>	
ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i>	
РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i>	
TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i>	
МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	673-678

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

A STUDY OF SATIRIC WORKS CREATED IN 20TH CENTURY ENGLISH AND UZBEKISTAN LITERATURE

Murodova Mukadas Ikromovna

Kattakurgan Branch of Samarkand State University

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

E-mail: murodova@mail.ru

Abstract. Twentieth-century English writers interpreted the genre of satire in various ways, some defining it as a specific type of verse and others as poetry written with satirical flair. Some writers have argued that satire is an official genre of literature, and that it exhibits the same characteristics in both prose and poetry. English and Uzbek satire has undergone various changes in its gradual development. As a result of being absorbed into the bosom of literary types and genres, it lost its special genre character. English and Uzbek satires have been interpreted by experts in the field based on the laws of art as follows: the American critic David Vorkester in his book "The Art of Satire" emphasized the primacy of comic imagery and irony as the main characteristics of satire.

Keywords: satire, irony, humor, artistic methods and tools that create satire.

XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI

Murodova Muqadas Ikromovna,

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. XX asr ingliz yozuvchilari satira janrini turlicha talqin qilishdi, ba'zi birlari unga nazmning ma'lum bir turi deb, boshqalar esa satirik qobiliyat bilan yozilgan she'r deb ta'rif berishdi. Ba'zi yozuvchilar esa satira adabiyotning rasmiy janri bo'lib, u nasriy asarda ham, nazmda ham bir xil xususiyatni namoyon etishini ta'kidlashdi. Ingliz va o'zbek satirachiligi o'zining tadrijiy taraqqiyotida turli o'zgarishlarga yuz tutdi. Adabiy tur va janrlar bag'riga singib ketishi natijasida o'zining maxsus janriy xususiyatini yo'qotdi. Ingliz va o'zbek satiralari soha olimlari tomonidan badiiyat qonuniyatlarasi asosida quyidagicha izohlangan: amerikalik tanqidchi Devid Vorkester o'zining "Satira san'ati" kitobida satiraning asosiy xususiyati sifatida hajviy tasvir va istehzoning birlamchilagini ta'kidlab o'tdi.

Kalit so'zlar: satira, kinoya, humor, satirani yuzaga keltiruvchi badiiy usul va vositalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N40>

Kirish. Ingliz yozuvchilari Uilyam Gerhardi (1895-1977), Stella Gibbonz (1902-1989), Jorj Oruell (1903-1950), Malkolm Maggeridj (1903-1990), H.F. Ellis (1907-2000), Antoni Burges (1917-1993), S.Norzkot Parkinson, Anna Russell, Jonatan Miller (1934-2019), Alan Bennet (1934), Dadli Mor (1935-2002), Richard Ingrams (1937), Peter Kuk (1937-1995), Eleanor Bron (1938), David Frost (1939-2013)lar urush davridagi jamiyatdagi o'zgarishlarni o'zida aks ettirgan satiraning yuksak namunalarini yaratishdi.

Uilyam Aleksandr Gerhardi 1895-yilda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida tug'ilgan. Yoshligida u Londonga borgan va Birinchi jahon urushida qatnashgan. U dastlab Rossiyaga yuborilgan, keyin esa yozishni boshlashdan oldin dunyo bo'ylab sayohat qilgan. "Behudalik" (1922) nomli birinchi romani Ketrin Mansfild homiyligida dunyo yuzini ko'rgan. Uning "Poliglotlar" (1925) va "O'ldiradigan sevgi" (1936) asarlari ham bor. U. Gerhardining uslubi uning ko'plab zamondoshlariga, jumladan, Entoni Paul, Herbert Jorj Uells, Ivlin Vo, Grem Grin va Oliviya Menningga ta'sir ko'rsatgan. Ivlin Vo Gerhardining asarlari bilan Oksfordda bakalavrda o'qib yurgan kezлari tanishgan. Adibning "Yiqilish va qulash" (1928) nomli birinchi romanida uslub jihatdan Gerhardiga izdoshlik seziladi. 1930-yillarda Ivlin Vo Gerhardini e'tirof etib, do'stiga shunday fikrlarni yo'llagan: "Men hech qachon u kabi yaxshi bo'lolmayman. Bilaman, menda ajoyib iste'dod bor, lekin u daho". Gerhardining uchinchi romani "Jazz va Jasper" (1928) va Voning ikkinchi romani "Razil kimsalar" (1930) ham mavzu va syujet jihatdan bir-biriga o'xshash asarlar hisoblanadi. U. Gerhardi A. Chexov asarlaridan juda hayratlangan va Chexov ta'sirini ingliz adabiyotiga olib kirgan. Gerhardini olimlar "Ingliz Chexovi" deb atashgan. Gerhardi kollejda o'qigan paytlari Chexov ijodiga juda qiziqqan.

Shuni ta'kidlash joizki, Ivlin Vo Chexovdan bilvosita ilhomlangan. Har ikki ijodkor uslubida kuzatilgan adabiy izdoshlik silsilasi ularning asarlarida o'xshash mavzu, g'oya, motivlar mavjudligini ta'minlagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Jorj Oruell taxallusi bilan mashhur britaniyalik yozuvchi va jurnalist Erik Artur Bler 1903-yil 25-iyunda Hindistonning Bixar shtatining Motixarida shahrida ingliz-hind oilasida tavallud topgan. Erik Bler 1933-yilda Jorj Oruell bo'ldi. Jorj Oruell bo'lishdan oldin "Kennet Miles" va "H.Lewis Allways" kabi taxalluslarini ham qo'llagan. Yozuvchining "Kataloniyaga hurmat" kitobida Ispaniyada ko'rgan kechirganlari va Stalinga qarshi g'oyalari aks etgan. 1944-yilda "Molxona" asarini, 1948-yilda "1984" asarlarini yozib tugatdi. Ushbu asarlar stalinizmga qarshi g'oyalalar bilan sug'orilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keskinlashgan dunyoni qaytadan bo'lib olish uchun bo'lgan kurash – "Molxona" asarining bosh mavzusi. Sobiq Sovet Ittifoqi mustabid tuzumining olib borgan siyosati asar mazmuniga singdirib yuborilgan. Muallif oldiga qo'yan oliy maqsadiga erishish uchun kinoyaviy obrazlardan foydalanadi. Fermadagi hayvonlar va turli jonivorlarni insoniyashtiradi, asar davomida hayvonlar ta'lim oladi, bir guruh hayvonlar quruvchi va ishchi vazifasida gavdalantiriladi, o'zaro muloqot qilishadi, savdo-sotiq aloqalari olib borishadi. Ular mustaqillik uchun, ozodlik uchun, baxtli va farovon hayot uchun kurashadi. "Molxona" asari bir necha mavzularni qamrab oladi. Asardagi asosiy mavzu "yetakchilik va korrupsiya"dir. Napoleon va uning tashviqotchi vaziri Skvile xatti-harakatlari ushbu mavzuni ochib bergan. Asar boshida Napoleon ijodkor hayvon Snovbol bilan birga ish tutadi, ammo keyinroq Skvileni o'ziga yaqin olib, barcha muvaffaqiyatsizliklarga Snovbolni ayblab, fermadan uni badarg'a qiladi. Napoleon obrazi o'zida yetakchilikni namoyon etib, o'z kuchini ishlatib, misli ko'rilmagan yumushlarni bajaradi. Asarning so'ngida u mister Jons kabi yetakchilikni namoyon etadi.

Stella Gibbons – ingliz yozuvchisi, jurnalisti va shoiri. 1902-yilda Buyuk Britaniya poytaxti Londonda tug'ilgan. Stella boshlang'ich ta'limni uyda oldi, shundan so'ng u qizlar uchun mo'ljallangan Shimoliy London kollejida tahsil oladi. "Here Be Dragons", "White Sand and Grey Sand", "A Pink Front Door", "The Weather at Tregulla", "The Wolves Were in the Sledge", "The Charmers", "The Woods in Winter" kabi satirik asarlar muallifi. "Sovuq qulay ferma" ("Cold Comfort Farm" 1932) – britaniyalik yozuvchi Stella Gibbonsning birinchi kitobi. Nashr

qilingandan so'ng, tezda muvaffaqiyatga erishdi. Hajviy roman o'sha paytda Britaniyada mashhur bo'lgan qishloq romantikalarining parodiyasidir. Romanda fevraldan iyungacha bo'lgan besh oylik zamon qamrob olinadi. Harakat Londonda boshlanadi va undan keyingi voqealar shaharda sodir bo'ladi. Biroq asosiy voqelik Sasseksdagi "Cold Comfort" fermasida sodir bo'ladi. Hikoya uchinchi shaxs tilidan bayon qilinadi. Asarning bosh qahramoni 20 yoshli Flora Poste yaqinda yetim qolgan. U yuqori sinfga mansub, lekin unga juda kam meros qolgan. Flora hal qiluvchi xarakterga ega qahramon, u har bir ishda tartib bo'lishini yaxshi ko'radi. U uzoq qarindoshlariga xat yozishga va yillik kichik daromadi evaziga yashash uchun joy so'rashga qaror qiladi. Bir necha tayinsiz javoblarni olgandan so'ng, Flora amakivachchasi Juditning mahzun javobi bilan qiziqib qoladi, unda Judit Starkadderlar oilasi Floraning otasiga qilgan yomonligi uchun Floraga tovon to'lashi kerakligiga ishora qiladi. Judit Florani "Cold Comfort Farm"ni uyiga aylantirishga taklif qiladi.

Flora kelganida, u qarindoshining uyida nosog'lom muhitga yuzma-yuz bo'ladi. O'zining pragmatizmiga asoslanib, Flora ularning xaotik hayotini tartibga solishni o'z vazifasiga aylantiradi. Romanda Floraning sarguzashtlari tasviri davom ettirilar ekan, adib uning boshiga tushgan sinovlarini satirik usulda tasvirlaydi. Muallif, shuningdek, o'sha paytda o'qiydigan tomoshabinlar orasida juda mashhur bo'lgan qishloq melodramalarini ham satira qiladi.

Entoni Burgess (1917-yil 25-fevral, Manchester – 22-noyabr, 1993-yil London) – ingliz yozuvchisi va adabiyotshunos (adabiyotshunoslik, ayniqsa Shekspir va Joys ijodini tadqiq qilgan), musiqa (simfoniya, balet va opera) yaratish, badiiy tarjima va jurnalistika bilan ham shug'ullangan. Jozef Kell, Entoni Pauell va Entoni Gilvern taxalluslari bilan ijod qilgan. Burgessning eng mashhur asari – "Murvatli apelsin" psixologik distopiya romanidir. "Murvatli apelsin" eng mashhur roman bo'lib, zamonaviy distopiya klassikasi hisoblanadi. Romanda tanlash erkinligi muhokama qilinadi. Inson o'zi xohlagan narsani qilish erkinligiga ega, ammo u jamiyatga tahdid solsa, erkinlikdan mahrum bo'ladi. Bu "Murvatli apelsin" romanida sodir bo'ladi. Biroq u haddan tashqari bo'rttiriladi. Hukumat Aleksning yaxshilik va yomonlik o'rtasida tanlov qilish qobiliyatini doimiy ravishda nazorat qiladi. Ular miyani "tozalash" va ongi nazorat qilish qobiliyatiga ega. Zo'ravonlikni har qanday holatda ham nazorat qilishga intiladigan jamoa bor, bu – ruhoniylari va F. Aleksandr tarafдорлari, har qanday holatda ham ular erkinlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Muhokama va natijalar. Inson tabiat "Murvatli apelsin" asaridagi eng muhim mavzulardan biridir. Asar voqealari davomida Aleks o'zining murakkab tabiat bilan kurashadi va nima uchun uning zo'ravonligi yaxshiliklari bilan teng ekanligini tushuntirishga harakat qiladi. Burgess o'quvchilarga pokiza, samimiylar tabiat yaxshilikka o'zgarishini tushunishga yordam beradi. Aleks o'zining murakkab xarakteri va og'ir jinoyatlari tufayli noan'anaviy qahramondir. Biroq yozuvchining mahorati shundaki, kitobxonlar roman oxirida unga hamdard bo'lishadi.

"Sun'iy malika" ("The Artificial Princess"), "Shuhratparastlik" ("Vainglory"), "Kardinal Pirellining ajibliklariga aloqadorlik" ("Concerning the Eccentricities of Cardinal Pirelli") romanlarining muallifi Ronald Firbenk Ivlin Vo bilan bir zamonda yashab ijod etgan. Tanqidchilar bu yozuvchini "kapalak" deb ta'riflashgan. Britaniyalik adabiy tanqidchi Kril Konnolli: "Firbank asarlarida ko'p hollarda mulohazasizlikni satiraning ayovsiz o'qiga tutgan", deya ta'kidlagan. Ronald Firbenk o'zi yashagan davr odamlari masxara qilish uchun asarlarida

yengil turtish, "surunkali qiqirlash", kinoyadan foydalangan. Shuni ta'kidlash joizki, Ivlin Vo asarlarida ham yosh avlodning maqsadsizligini, umidsizligini masxara qiladi.

Ivlin Vo yozuvchi Ronald Firbankning yozuv uslubini quyidagicha ta'riflaydi: "Uning san'ati mutlaqo saylanadigan. O'zining dizayn bo'laklarini go'yo kichkina brilliant patni qushning ko'krak qafasidan yilib olgandek terib chiqadi. Mazmunsiz va rejasiz ko'ringan, nozik, kelishgan, oqlangan, kulgili suhbat davom etadi. Keyinroq kitobxon sekin-asta asarning qaysidir betidagi voqeа boshqa betdagi voqeа-hodisaga aloqador ekanligini tasodifan eslaydi" [1;80].

Satirik asarlar birovning yoki jamiyatning ustidan kulishni emas, balki odamlarning kamchiliklarini, ijtimoiy illatlarni o'quvchilarga namoyish etish uchun yozilgan. Muayyan voqeа-hodisa, shaxsni masxaralash orqali xalqqa haqiqatni yetkazib bergan.

Ta'kidlash joizki, o'zbek satirasi ildizlari ham uzoq tarixga ega. Voqelikni aks ettirishning alohida g'oyaviy-badiiy prinsipi bo'lgan satira barcha sivilizatsiyalashgan xalqlar adabiyoti, shu jumladan, o'zbek xalqining ham og'zaki va yozma adabiyotida azal-azaldan muhim o'rinda bo'lgan. Milliy adabiyotimizda satira va yumorning ilk namunalari dastlab xalq og'zaki ijodida paydo bo'lib, keyinchalik taraqqiy etib, yuksalib yozma adabiyotga ham kirib kelgan. Shunday qilib, satira xalq og'zaki ijodidan boshlanib, ulug' bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Turdi Farog'iy, Maximur Mahmud, Muhammad Sharif Gulxaniy, Junaydullo ibn Islomsheyx Hoziq, Muhammad Aminxo'ja Muqimiyy va Ubaydulla Salih o'g'li Zavqiylarning ijodlarida gullab-yashnadi.

Milliy adabiyotimizning buyuk namoyandalari Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning "Tanobchilar", "Voqeai ko'r Ashurboy hoji", "Moskovchi boy", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi", Abdulla Qodiriyning "Kalvak Mahzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?", "Shirvon xola nima deydi?", Sadriddin Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" (1939) hajviy qissasi, G'afur G'ulomning "Tirilgan murda", "Shum bola", Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin", "Adabiyot muallimi", Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni", "Sobiq", "Qoplon", "O'rik domla", "Xandonpista" kabi hajviy asarlarida, Erkin Vohidovning "Oltin devor", Xudoyerberdi To'xtaboyevning "Sariq devning o'limi", Ne'mat Aminovning "Yolg'onchi farishtalar" kabi satirik asarlarida yozuvchilarning mohir satiranavis ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

"Satira XX asr o'zbek adabiyotida yangi taraqqiyot davriga kirdi, uning mavzu, janrlar doirasi kengaydi, ijtimoiy ahamiyati va ta'sirchanligi ortdi. Uning taraqqiyotiga Hamza, Abdulla Qodiri, Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va Ne'mat Aminov singari yozuvchilar salmoqli ulush qo'shdilar" [3;315].

Hayotimizdagи o'tmish sarqitlari va turli-tuman illatlarga qarshi kurash, bularni ildizi bilan qo'porishda satiraning roli beqiyos kattadir. Qiyomiga yetib mo'ljaliga teggan satirik so'z shu illatga qarshi kurashda bir yoki bir necha ochiq suddan kattaroq rol o'ynashi, chuqurroq ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbek adabiyotining o'ziga xos eng o'tkir, hozirjavob va ta'sirchan turi bo'lgan satirik asarlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida har doim muhim o'rinn egallab kelgan. Olimlarning satiraga nisbatan turlicha yondashuvlari va bergan ta'riflari keltirildi." 1.1-jadvalga qarang".

1.1-jadval.

O'zbek adabiyotshunoslarining satiraga bergan ta'riflari

F.I.Sh.	Ta'rif
Izzat Sulton	Satira va humor alohida adabiy tur bo'lmasdan faqat tasvir etilayotgan predmetga muallifning munosabati bilan (masxara yoki do'stona hazillashish ruhi bilan) boshqa "jiddiy adabiyot" dan ajralib turadi. Shu sababli satira va humor hamma adabiy turlar doirasida asarlarga ayricha bo'yoq berish bilan yangi janrlarni paydo qiladi: satirik hikoya, satirik roman, satirik drama, satirik g'azal. Satira va yumorning quroli kulgidir.
Matyoqub Qo'shjonov	Satira to'xtovsiz zo'rayib boradigan mubolag'a emas, ayamay ishlatilgan, o'lchanmay chaplangan bo'yoqlar ham emas. Satira - hayotda, har qadamda, hodisalar zamirida yashirinib yotgan kulgini payqashga, uni asarga ko'chirib, qayta yaratishga, jonlantirishga imkon beradigan alohida qobiliyat tufayli tug'iladi.
Hafiz Abdusamatov	Kulgi, kinoya, sarkazm va masxarasiz satirani, satirik personajni tasavvur qilish mumkin emas. Har bir satirik asar va obraz kulgi va masxara bilan sug'orilgan bo'lishi tabiiydir. Satirik asarning sifati va taqdiri kulgining qanchalik ustalik bilan ishlata olinishi, qahramon xarakterini kulgi bilan boyita olinishiga bog'liq. Ma'lumki, kulgining manbai hayotdagi, jamiyatdagi nuqsonlar, kamchiliklar, insonlardagi yaramas xususiyatlardir. Satirada ular ustidan kulinadi va ular masxara qilinadi. Munofiq, beburd, befahm shaxslar birin-ketin satira nayzasidan o'tkaziladi. Ularning xarakteridagi yaramas xususiyatlar ustalik bilan bo'rttirib ifoda etiladi.
To'xta Boboyev	Satira va humor (hajviyot) hamda badiiy publitsistikani ham qorishiq hodisa sifatida o'rganish mumkin. Chunki hajviyot ham, badiiy publitsistika ham hayotni aks ettirish, obraz yaratish, kompozitsiya va uslubda qator o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Masalan, satira va humor voqelikdagi salbiy jihat va hodisalarni kulgi uyg'otadigan qilib aks ettiradi. Badiiy publitsistika badiiy adabiyotning operativ va jangovar sohasi.
Hotamjon Umurov	San'atkor hayotdagi yaramas illatlarni, nuqsonlarni zaharxanda va yengil kulgi bilan tasvirlasa – satira va humor; hayot manzarasini mavjud realliklarga, aniq, fakt va hujjalarga asoslanib ulug'lasa – ocherk, tanqid qilsa – felyeton kabi xillar va janrlar orqali in'ikos ettiradi.

Aynan bu ta'riflarni keltirishdan maqsad, nafaqat satiraning xususiyatlari to'g'risida olimlarning e'tiroflarini keltirib o'tish, balki ishning nazariy konsepsiyasini yaratish maqsadida satira to'g'risida olib borilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratildi. Jadvaldagagi satiraga xos nazariy xususiyatlar izohlangan ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, olimlarning yondashuvlarida muvofiqlik mavjud. Barcha adabiyotshunoslari, ijodkor satirik asarni yaratishda hayotdagi illatlarni, nuqsonlarni payqab, zaharxanda kulgi bilan uni asarga ko'chirib, qayta jonlantirishini ta'kidlab o'tishgan. Izzat Sulton satirik hikoya, satirik roman, satirik drama, satirik g'azal kabi yangi janrlar yaratilganini e'tirof etgan bo'lsa, Matyoqub Qo'shjonov satirik asarlar hodisalar zamirida yashirinib yotgan kulgini payqashga, uni asarga ko'chirib, qayta yaratishga, jonlantirishga imkon beradigan alohida qobiliyat tufayli tug'ilishiga urg'u beradi. To'xta Boboyev va Hotamjon Umurovlar satira va humor voqelikdagi salbiy jihat va hodisalarni kulgi

uyg'otadigan qilib aks ettirishiga e'tibor qaratishsa, Hafiz Abdusamatov satirani yuzaga keltiruvchi badiiy usul va vositalarini sanab o'tdi. Bu jihat satira to'g'risidagi mulohazalarimizni yaxlit tizim asosida shakllanishini ta'minlaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, haqiqatdan ham, XX asrda satira ingliz va o'zbek adabiyotida yangi taraqqiyot davriga kirdi. Bu davrda mavzu va janrlar doirasi yanada kengayib, deyarli barcha janrlarda satiraga xos metodlar paydo bo'ldi. Kinoyaga, oshirishlarga, bo'rttirishlarga, kulgili holatlarga, fantaziyalarga boy, bir-biridan ajoyib satirik asarlar dunyo yuzini ko'rди. Satira jamiyat ravnaqiga to'siq bo'layotgan illatlarni ayovsiz fosh etish, kishilarni yuksak ideallar ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladigan janr sifatida ijtimoiy hayotdagi ahamiyati va ta'sirchanligi yanada ortdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Waugh E. Ronald Firbank //Life and Letters. Scien.magazine.– London. 1929. – P.80.
2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: "O'AJBIT" markazi, 2003. – B. 315.
3. Qahhor A. «Mushtum» to'g'risida (1961)// <https://ziyouz.uz/matbuot/sovetskaya-matbuoti/abdulla-qahhor-mushtum-to-grisida-1961>.
4. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor ijodida satira va humor. – T.: Fan nashriyoti, 1973. – 152 b.
5. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati: Monografiya.–T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. –232 b.
6. Qo'shjonov M. Mohiyat va badiiyat. (Adabiy–tanqidiy maqolalar.). – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. – 232 b.
7. Qahhor A. Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga. Adabiyotimiz avtobiografiyasi, – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. – B 214.
8. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. –T.: Yosh gvardiya, 1968. – B.50.
9. Qo'chqortoyev I. Abdulla Qahhorning frazeologizmlardan foydalanish mahorati. – T. NDA – B.139.
10. Hastings S. Evelyn Waugh. A biography. Houghton Mifflin Company Boston-New York.1994. – 724 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali**
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro’yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).